

TA'LIM MOLIYASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI INSON KAPITALI SAMARADORLIGI VA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Ma'mun universiteti

PhD,dotsent

E-mail: azguma2819@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim moliyasini diversifikatsiya qilish orqali inson kapitali samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari tadqiq etildi. Tadqiqotda davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro grantlar, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining ta'lim tizimiga ta'siri iqtisodiy jihatdan baholandi. Ta'lim xarajatlari, oliy ta'lim qamrovi, maktabgacha ta'lim rivojlanishi hamda bozor asosidagi ta'lim xizmatlari ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalarda ta'limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish inson kapitali sifati, mehnat unumdorligi va hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqligi asoslandi. Moliyaviy avtonomiya, natijaviy monitoring va ta'lim sifati indikatorlarini kuchaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, ta'lim moliyasi, iqtisodiy o'sish, davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro grantlar, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sifati, innovatsion moliyalashtirish, mehnat unumdorligi.

Аннотация

В данной статье исследованы вопросы обеспечения экономического роста и повышения эффективности человеческого капитала посредством диверсификации финансирования образования. В исследовании дана экономическая оценка влияния государственного бюджета, частного сектора, международных грантов, государственно-частного партнёрства и инновационных механизмов финансирования на систему образования. Проанализированы показатели расходов на образование, охвата высшим образованием, развития дошкольного образования и объёма рыночных образовательных услуг. Результаты показали, что диверсификация источников финансирования образования непосредственно связана с качеством человеческого капитала, производительностью труда и региональным экономическим развитием. Разработаны научные выводы по укреплению финансовой автономии, результативного мониторинга и показателей качества образования.

Ключевые слова: человеческий капитал, финансирование образования, экономический рост, государственный бюджет, частный сектор, международные гранты, государственно-частное партнёрство, качество образования, инновационное финансирование, производительность труда.

Abstract

This article examined the role of diversified education financing in improving human capital efficiency and ensuring economic growth. The study evaluated the economic impact of state budget funding, private sector participation, international

grants, public-private partnerships, and innovative financing mechanisms on the education system. Indicators related to education expenditures, higher education coverage, preschool education development, and market-based educational services were analyzed. The findings showed that diversification of education financing sources was directly associated with human capital quality, labor productivity, and regional economic development. Scientific conclusions were developed regarding financial autonomy, performance-based monitoring, and strengthening education quality indicators.

Keywords: human capital, education financing, economic growth, state budget, private sector, international grants, public-private partnership, education quality, innovative financing, labor productivity.

KIRISH

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiy o‘shining eng muhim strategik omillaridan biridir. Ilgari iqtisodiy taraqqiyot asosan yer, mehnat va jismoniy kapital bilan izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda mamlakatlarning raqobatbardoshligi bilimli, moslashuvchan va innovatsion fikrlaydigan ishchi kuchiga bevosita bog‘liq. Shu sababli ta‘lim xarajatlarini faqat ijtimoiy majburiyat sifatida emas, balki kelajakdagi mehnat unumdorligi, daromadlar o‘shisi, innovatsion faollik va ijtimoiy barqarorlikka yo‘naltirilgan uzoq muddatli investitsiya sifatida talqin qilish zarur.

Jahon banki ma‘lumotlarida ta‘limga davlat xarajatlari ko‘rsatkichi UNESCO Statistika instituti ma‘lumotlariga asoslanishi qayd etilgan; bu holat ta‘lim moliyasini inson kapitalini baholashda xalqaro qiyosiy indikator sifatida ishlatish imkonini beradi. Mamlakatimizda 2023-yilda ta‘limga davlat xarajatlari YaIMga nisbatan 5,4729 foizini tashkil qilgani qayd etilgan[1]. 2024-yilda esa ta‘lim xarajatlari davlat xarajatlarining 22,07 foizi darajasida bo‘lgani ko‘rsatilgan[2]. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizning ta‘limga sarflayotgan davlat resurslari xalqaro tavsiya etilgan oraliqqa yaqin yoki ayrim yillarda undan yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. UNESCO SDG-4 doirasida mamlakatlarga ta‘limga kamida YaIMning 4-6 foizi yoki davlat xarajatlarining 15-20 foizini yo‘naltirishni tavsiya qiladi[3].

Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning 11-sentabr 2023-yildagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida barqaror iqtisodiy o‘sh orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish, bilimli va sog‘lom avlodni tarbiyalash, har bir fuqaroning salohiyatini rivojlantirish g‘oyalari belgilangan[4]. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun esa ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida ta‘lim tizimining institutsional poydevorini belgilaydi[5].

Oliy ta‘lim tizimidagi kengayish ham moliyalashtirish masalasini yanada dolzarb qiladi. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024/2025-o‘quv yili boshida mamlakatimizda oliy ta‘lim tashkilotlari soni 222 taga yetgan, bu 2020/2021-o‘quv yiliga nisbatan 95 taga yoki 74,8 foizga ko‘pdir. Shu davrda oliy ta‘limda tahsil olayotgan talabalar soni 571,5 ming nafardan 1 432,8 ming nafarga yetib, 2,5 baravarga oshgan[6]. Demak, ta‘lim infratuzilmasi, professor-o‘qituvchilar salohiyati, stipendiya, laboratoriya, raqamli platforma va mehnat bozori bilan integratsiyani moliyalashtirish

endi ijtimoiy soha muammosi emas, balki makroiqtisodiy raqobatbardoshlik masalasidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy adabiyotlarda ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va sog'liqni saqlash xarajatlarini ishlab chiqish samaradorligini oshiruvchi investitsiya sifatida talqin qilish orqali shakllangan. T. Shuls tadqiqotlarida inson kapitali iqtisodiy o'sishning muhim ichki manbai sifatida baholanadi. Uning yondashuviga ko'ra, ta'lim va malakaga yo'naltirilgan xarajatlar insonning ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi hamda jamiyatda yuqori iqtisodiy qaytim yaratadi[7].

G. Bekker inson kapitali nazariyasini mikroiqtisodiy jihatdan chuqurlashtirib, ta'limni shaxsiy daromad va mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni oshiruvchi investitsiya sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida ta'limga sarflangan xarajat kelajakda yuqori ish haqi, bandlik imkoniyatlari va kasbiy o'sish orqali qoplanishi asoslab beriladi[8].

J. Minser esa ta'lim, ish tajribasi va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tahlil qilgan. Uning ish haqi funksiyasi inson kapitalining mehnat bozoridagi natijalarini o'lchashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Minser yondashuvi shuni ko'rsatadiki, ta'lim yillari va kasbiy tajriba ortgani sari shaxsning daromad olish salohiyati ham oshadi[9].

Mahalliy iqtisodchilar inson kapitali va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik, asosan, ta'lim sifati, davlat siyosati, institutsional islohotlar va barqaror iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Jumladan, M. M. Sodirjonov ta'lim tizimini inson kapitali rivojlanishining eng muhim omili sifatida ko'rib, davlatning investitsion siyosatida ta'lim ustuvor yo'nalish bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, ta'lim inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy manba bo'lib, bilim, kasb, malaka va intellektual salohiyatni iqtisodiy resursga aylantiradi[10].

A. Q. Shirinov inson kapitali rivojlanishini Markaziy Osiyo va O'zbekiston islohotlari doirasida tahlil qilib, inson taraqqiyoti, ijtimoiy mobillik va xalqaro moliyaviy institutlar rolining ortib borayotganiga e'tibor qaratadi. Tadqiqotda inson kapitali faqat individual bilim yoki malaka bilan cheklanmay, balki ijtimoiy tanlov imkoniyatlari, iqtisodiy erkinlik va institutsional islohotlar bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv ta'limni moliyalashtirishda xalqaro grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik yordam dasturlarining ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi[11].

G. A. Sattikulova inson kapitalini O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ko'rib, tahlilni Inson taraqqiyoti indeksi tarkibiy qismlari bo'lgan umr davomiyligi, ta'lim darajasi va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad bilan bog'laydi. Muallif O'zbekistonning 2015-2023-yillardagi inson taraqqiyoti ko'rsatkichlari dinamikasiga e'tibor qaratadi[12]. Mazkur tadqiqotning maqola mavzusiga bog'liqligi shundaki, ta'limni moliyalashtirish natijalari faqat maktab yoki universitet darajasida emas, balki milliy inson taraqqiyoti, farovonlik va iqtisodiy barqarorlik indikatorlari orqali ham baholanishi kerak.

A. B. Sherov ta'lim tizimining iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qilib, ta'lim inson kapitalini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotda ta'lim orqali zamonaviy mehnat bozori uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanishi, bu esa iqtisodiyotda moslashuvchanlik va raqobatbardoshlikni kuchaytirishi qayd etiladi[13]. Ushbu qarash ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda mehnat bozori ehtiyojlari, kasbiy tayyorgarlik, raqamli kompetensiyalar va amaliy ko'nikmalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, iqtisodiy-statistik, institutsional, dinamik va sabab-oqibat tahlili usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil ta'limni moliyalashtirish manbalarini yagona iqtisodiy mexanizm sifatida baholashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil davlat, xususiy, xalqaro va innovatsion moliyalashtirish shakllarining afzallik hamda cheklovlarini aniqlash imkonini berdi. Iqtisodiy-statistik va dinamik tahlil orqali ta'lim xarajatlari, talabalar soni, ta'lim qamrovi va byudjet ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar izohlandi. Institutsional tahlil moliyaviy avtonomiya, hisobdorlik va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini baholashda qo'llanildi. Sabab-oqibat tahlili esa ta'limni moliyalashtirish, inson kapitali sifati, mehnat unumdorligi va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat byudjeti ta'lim tizimining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda davlat moliyalashtirishi ijtimoiy tenglik, majburiy ta'lim kafolati va kambag'allikning avlodlararo uzatilishini kamaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2024-yil uchun Fuqarolar byudjetida ta'lim sohasiga 69 076,2 mlrd so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan, bu ijtimoiy xarajatlarning 46 foizini tashkil etadi[14]. Mazkur raqam davlat byudjetida ta'limning ijtimoiy xarajatlari ichidagi eng yirik yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Biroq iqtisodiy nuqtayi nazardan mablag'ning kattaligi hali samaradorlikni anglatmaydi. Asosiy masala mablag'ning qaysi yo'nalishga, qaysi muassasaga, qanday natijaviy indikator asosida va qanday monitoring mexanizmi orqali ajratilayotganidadir.

Davlat mablag'lari quyidagi yo'nalishlar orqali inson kapitaliga ta'sir ko'rsatadi:

- o'qituvchilar ish haqi va malakasini oshirish;
- yangi maktab va oliy ta'lim binolarini qurish;
- laboratoriya va raqamli texnologiyalar xaridi;
- stipendiya va ijtimoiy yordam;
- maxsus davlat dasturlari;
- inklyuziv va maktabgacha ta'limni kengaytirish.

Xususiy moliyalashtirish kontrakt-to'lovlari, xususiy ta'lim muassasalari, ota-onalar to'lovlari, homiylik, korporativ investitsiyalar, kasbiy tayyorgarlik xarajatlari, xayriya jamg'armalari va maqsadli kapital jamg'armalaridan iborat. 2025-yil yanvar-noyabr oylarida mamlakatimizda bozor asosidagi ta'lim xizmatlari hajmi 34,2 trln so'mga yetgani, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,8 foizga yuqori ekani qayd

etilgan. Hududlar kesimida Toshkent shahri 16,6 trln soʻmdan ortiq koʻrsatkich bilan yetakchi boʻlib, bu mamlakat boʻyicha taʼlim xizmatlari bozorining deyarli yarmiga yaqinini tashkil qilgan[15].

Bu raqamlar ikki xil iqtisodiy xulosani beradi. Birinchidan, aholining taʼlimga xususiy talabining ortishi inson kapitaliga ijtimoiy ehtiyoj kuchayganini bildiradi. Ikkinchidan, taʼlim xizmatlarining Toshkentda haddan tashqari toʻplanishi hududiy tengsizlik xavfini koʻrsatadi. Agar sifatli xususiy taʼlim xizmatlari asosan poytaxtda jamlansa, viloyatlarda inson kapitali rivojlanishi nisbatan sekinlashadi.

Xalqaro grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik yordam taʼlim tizimiga nafaqat moliyaviy resurs, balki boshqaruv tajribasi, monitoring madaniyati, kompetensiyaga asoslangan oʻquv dasturlari va xalqaro baholash mexanizmlarini olib kiradi.

2025-yilda Islom taraqqiyot banki va Global Partnership for Education ishtirokidagi Smart Education loyihasining umumiy qiymati 220,25 mln AQSH dollarini tashkil qilgani, shundan 160,25 mln dollari IsDB, 40 mln dollari GPE granti va 20 mln dollari Oʻzbekiston hukumati hissasiga toʻgʻri kelgani qayd etilgan. Loyiha doirasida 58 ta inklyuziv maktab, 2 431 ta sinfxona, laboratoriya, mebel va raqamli infratuzilma tashkil etilishi, 72 930 nafardan ortiq oʻquvchi va 36 115 nafar pedagog hamda xodimlar qamrab olinishi rejalashtirilgan[16].

Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlariga davlat-xususiy sheriklik, taʼlim vaucherlari, taʼlim obligatsiyalari, natijaga yoʻnaltirilgan moliyalashtirish, maqsadli kapital jamgʻarmalari, taʼlim kreditlari, daromadga bogʻliq qaytariladigan taʼlim moliyalashtirish va inson kapitali shartnomalari kiradi.

Maktabgacha taʼlimda xususiy va davlat-xususiy sheriklik asosidagi xizmatlar jadal kengaymoqda. UNESCO maʼlumotlariga koʻra, 2024-yilda Oʻzbekistonda 27 162 ta nodavlat maktabgacha taʼlim provayderi boʻlgan, shundan 847 tasi xususiy, 24 927 tasi oilaviy, 1 388 tasi davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritgan; davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari soni esa 6 780 tani tashkil etgan. Maktabgacha taʼlimda xususiy muassasalardagi bolalar ulushi 2016-yildagi 2 foizdan 2024-yilda 41 foizgacha oshgani qayd etilgan[17].

Bu holat moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish inson kapitalini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida muhim natijalar berishini koʻrsatadi. Erta bolalik taʼlimiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar keyingi bosqichlarda maktabdagi muvaffaqiyat, kognitiv rivojlanish va ijtimoiy koʻnikmalarning shakllanishi uchun mustahkam asos yaratadi. UNICEF maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim qamrovi 2017-yildagi 30 foizdan kam darajadan 2025-yilda 75 foizdan yuqori koʻrsatkichga yetdi [18]. Bu esa taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va moliyalashtirish mexanizmlarining ijobiy natija berayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval maʼlumotlari taʼlim muassasalarini moliyalashtirishda turli manbalar bir-birini toʻldiruvchi iqtisodiy funksiyani bajarishini koʻrsatadi. Davlat byudjeti taʼlim tizimining asosiy tayanchi sifatida keng qamrov va ijtimoiy adolatni taʼminlaydi. Natijadorlikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi davlat mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy

byudjetlar esa hududiy ehtiyojlarni hisobga olish orqali ta'lim xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirish imkonini bermoqda.

1-jadval

Moliyalashtirish manbalarining qiyosiy tahlili¹

Manba turi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Barqarorlik darajasi	Samaradorlik darajasi
Davlat byudjeti	Keng qamrov, ijtimoiy adolat, majburiy ta'lim kafolati	Natijadorlikni oshirish uchun boshqaruvni takomillashtirish zarur	Yuqori	O'rta-yuqori
Mahalliy byudjet	Hududiy ehtiyojlarni aniqroq hisobga oladi	Hududlararo imkoniyatlarni muvofiqlashtirish talab etiladi	O'rta	O'rta-yuqori
Xususiy sektor	Raqobat, moslashuvchanlik, qo'shimcha investitsiya manbai	Sifat nazoratini kuchaytirish zarur	O'rta-yuqori	Yuqori
Korporativ moliyalashtirish	Mehnat bozori bilan integratsiyani kuchaytiradi	Uzoq muddatli strategik hamkorlikni rivojlantirish zarur	O'rta	Yuqori
Xalqaro grantlar	Zamonaviy tajriba, texnologiya va xalqaro standartlarni olib kiradi	Loyihalarni uzluksiz davom ettirish mexanizmi muhim	O'rta	Yuqori
Davlat-xususiy sheriklik	Infratuzilmani tez rivojlantiradi va investitsiyalarni jalb qiladi	Shartnoma mexanizmlarini puxta ishlab chiqish talab etiladi	O'rta-yuqori	Yuqori
Endowment jamg'armalari	Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi	Samarali boshqaruv tizimini talab qiladi	Yuqori	Yuqori
Ta'lim kreditlari	Oliy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi	Moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim	O'rta	O'rta-yuqori

Xususiy sektor va korporativ moliyalashtirish ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar, moslashuvchan boshqaruv va mehnat bozori talablariga yaqinlashuvni olib kiradi. Ayniqsa, korxonalar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan dasturlar amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, bitiruvchilar bandligini oshirish va zamonaviy kasblarga mos inson kapitalini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan olib borilayotgan tartibga solish va sifat nazorati mexanizmlari ta'lim xizmatlaridan foydalanishda teng imkoniyatlarni saqlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro grantlar va davlat-xususiy sheriklik ta'lim tizimiga qo'shimcha resurs, tajriba va infratuzilmaviy yangilanish olib kiradi. Ularning samaradorligi loyiha boshqaruvi, shaffoflik va uzoq muddatli natijalar monitoringiga bog'liq. Endowment jamg'armalari esa ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshiradi, ammo

¹ Manba: OECD, UNESCO, Jahon banki hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ta'limni moliyalashtirishga oid rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

bunday mexanizm ishonchli boshqaruv va rivojlangan xayriya madaniyatini talab qiladi.

2-jadval

O‘zbekiston ta’lim moliyalashtirish va inson kapitali indikatorlari bo‘yicha tanlangan statistik ko‘rsatkichlar¹

Ko‘rsatkich	Yil yoki davr	Raqamli qiymat	Iqtisodiy talqin
Ta’limga davlat xarajatlari, YaIMga nisbatan, foizda	2023-yil	5,4729	O‘zbekiston ta’lim xarajatlari UNESCO tavsiya qilgan 4-6 foiz oralig‘ida
Ta’lim xarajatlari, davlat xarajatlariga nisbatan, foizda	2024-yil	22,07	Ta’lim davlat moliyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri
Ta’lim uchun rejalashtirilgan davlat xarajati, mlrd so‘m	2024-yil	69 076,2	Ijtimoiy xarajatlarning 46 foizi ta’limga yo‘naltirilgan
Bozor asosidagi ta’lim xizmatlari hajmi, trln so‘m	2025-yil yanvar-noyabr	34,2	Aholi va xususiy sektorning ta’limga talabi ortmoqda
Bozor asosidagi ta’lim xizmatlari o‘sishi, foizda	2025-yil yanvar-noyabr	8,8	Xususiy ta’lim bozorida real kengayish mavjud
Oliy ta’lim tashkilotlari soni, dona	2024-2025 yil	222	2020/2021-yilga nisbatan 74,8 foiz ko‘p
Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni, dona	2024-2025 yil	99	2020/2021-yilga nisbatan qariyb 20 baravar ko‘paygan
Oliy ta’lim talabalari soni, ming nafar	2024-2025 yil	1 432,8	2020/2021-yilga nisbatan 2,5 baravar oshgan
Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari soni, ming nafar	2024-2025 yil	49,6	2020/2021-yilga nisbatan 54,5 foiz ko‘paygan
Maktabgacha ta’lim qamrovi, foizda	2025	75 dan yuqori	Erta yoshdagi inson kapitaliga investitsiya kengaymoqda
Smart Education loyihasi qiymati, mln AQSH dollari	2025-2030 yil	220,25	Xalqaro moliyalashtirish infratuzilma va sifat islohotiga yo‘naltirilgan
Smart Education qamrovi	2025-2030 yil	72 930dan ortiq o‘quvchi, 36 115 pedagog va xodim	Tashqi moliyalashtirish natijaviy indikatorlar bilan bog‘langan

2-jadval O‘zbekistonda ta’limni moliyalashtirish va inson kapitali rivojlanishi o‘rtasida bevosita iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ta’limga davlat xarajatlarining YaIMga nisbatan 5,47 foiz va davlat xarajatlari tarkibida 22,07 foiz bo‘lishi ta’lim sohasi milliy byudjet siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotganini anglatadi. Bu ko‘rsatkichlar ta’lim xarajatlarining nafaqat ijtimoiy, balki uzoq muddatli iqtisodiy investitsiya sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

2024-yilda ta’lim uchun 69 076,2 mlrd so‘m ajratilishi davlat tomonidan inson kapitaliga katta miqyosda resurs yo‘naltirilayotganini bildiradi. Biroq bunday

¹ Manba: Jahon banki, UNESCO, Milliy statistika qo‘mitasi, Fuqarolar byudjeti, UNICEF va IsDB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

mablag'larning samarasi ularning ta'lim sifati, o'qituvchi salohiyati, infratuzilma va raqamli texnologiyalar bilan qanchalik bog'langaniga bog'liq. Ya'ni katta raqamning o'zi hali sifat degani emas, iqtisodiyot ham ba'zan shuni odamlarga ming marta eslatishga majbur bo'ladi.

Xususiyy ta'lim xizmatlari hajmining 34,2 trln so'mga yetishi va 8,8 foizga o'sishi ta'lim bozorida xususiyy talab kuchayayotganini ko'rsatadi. Bu holat moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasini kuchaytiradi, biroq xususiyy ta'lim xizmatlari hududlar bo'yicha notekis rivojlansa, ta'lim imkoniyatlarida ijtimoiy va hududiy tafovutlar ortishi mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotlari sonining 222 taga, talabalar sonining esa 1 432,8 ming nafarga yetishi inson kapitali qamrovi kengayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, talabalar sonining tez o'sishi professor-o'qituvchilar, laboratoriyalar, yotoqxonalar, raqamli infratuzilma va mehnat bozori bilan integratsiyaga bo'lgan moliyaviy ehtiyojni ham oshiradi.

Maktabgacha ta'lim qamrovining 75 foizdan yuqori darajaga yetgani inson kapitalini erta bosqichdan shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi. Smart Education loyihasining 220,25 mln AQSH dollari qiymatida amalga oshirilishi esa xalqaro moliyalashtirishning infratuzilma, inklyuziv ta'lim va pedagogik salohiyatni oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim moliyasini diversifikatsiya qilish inson kapitali samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim iqtisodiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida davlat budjeti, xususiyy sektor, xalqaro grantlar va davlat-xususiyy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslandi. Ta'lim xarajatlarining YaIMdagi ulushi, oliy ta'lim qamrovining kengayishi, maktabgacha ta'lim rivojlanishi hamda xususiyy ta'lim xizmatlari hajmining ortishi mamlakatda inson kapitaliga investitsiyalar izchil kuchayib borayotganini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida ta'limni moliyalashtirish samaradorligi faqat mablag' hajmi bilan emas, balki ularning natijadorlik, ta'lim sifati, infratuzilma, pedagogik salohiyat va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unligi orqali baholanishi aniqlandi. Inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat va hududiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xususiyy va xalqaro moliyalashtirish manbalarining kengayishi ta'lim tizimiga qo'shimcha resurslar, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va raqamli texnologiyalarni jalb qilish imkonini yaratgani qayd etildi. Davlat-xususiyy sheriklik asosidagi loyihalar maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimida qamrov hamda sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilayotgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda natijaviy indikatorlarga asoslangan mexanizmlarni keng joriy etish;
- hududlar o'rtasidagi ta'lim sifati tafovutlarini kamaytirish maqsadida mahalliy budjetlar va maqsadli dasturlar samaradorligini oshirish;

- oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy avtonomiyasini kuchaytirish bilan birga shaffof monitoring tizimini rivojlantirish;
- xususi sektor va korporativ investitsiyalarni kasbiy ta’lim hamda innovatsion loyihalarga faol jalb qilish;
- raqamli ta’lim platformalari, laboratoriyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni moliyalashtirishni kengaytirish;
- xalqaro grantlar va texnik yordam dasturlari asosida inklyuziv hamda kompetensiyaga yo’naltirilgan ta’lim loyihalarini rivojlantirish;
- ta’lim kreditlari va endowment jamg’armalari mexanizmlarini takomillashtirish orqali uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash.

Taklif etilgan yondashuvlar ta’lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish, inson kapitali sifatini mustahkamlash, mehnat bozori talablariga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Bank. (n.d.). Government expenditure on education, total (% of GDP) — Uzbekistan. World Development Indicators.
2. World Bank. (n.d.). Government expenditure on education, total (% of government expenditure) - Uzbekistan. World Development Indicators.
3. UNESCO Institute for Statistics. (2025). SDG 4 country profile: Uzbekistan. UNESCO.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son. “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim: 2024/2025-o‘quv yili statistik ko‘rsatkichlari. Milliy statistika qo‘mitasi <https://stat.uz>
7. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. *The American Economic Review*, 51(1), 1-17.
8. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. National Bureau of Economic Research.
9. Mincer, J. A. (1974). Schooling, experience, and earnings. National Bureau of Economic Research.
10. Sodirjonov, M. M. (2020). Education as the most important factor of human capital development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 4(84), 901-905.
11. Shirinov, A. Q. (2021). Human development of human capital as per reforms in Central Asia. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 3(3), 93-97.
12. Sattikulova, G. A. (2025). Human capital as a factor of sustainable development in Uzbekistan. *International Journal of Economic Integration and Regional Competitiveness*, 2(10).
13. Sherov, A. B. (2024). Ta’lim tizimining iqtisodiyotda tutgan o‘rni. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(5, Part 3), 162-167.

14. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Citizens’ Budget: 2024. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.
15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekistonliklar ta’lim xizmatlari uchun 11 oyda 34 trln so‘mdan ortiq mablag‘ sarflagan. <https://stat.uz>
16. Islamic Development Bank. (2025). Islamic Development Bank and Uzbekistan sign landmark education project with GPE grant support. IsDB.
17. UNESCO. (2026). Uzbekistan: 2026 GEM Report country case studies. Global Education Monitoring Report.
18. UNICEF Uzbekistan. (2025). Early childhood education. UNICEF.
19. Ruzmetova, G. N. (2025). YAPONIYA VA KOREYA TAJRIBASIDA INSON KAPITALI TRANSFORMATSIYASI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(19), 48-54.
20. Ruzmetova, G. N. (2024). MAMLAKATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI SALOMATLIK DARAJASI TAHLILI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 69-72.
21. Ruzmetova, G. N. (2025). TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI MISOLIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH MEKANIZMI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(15), 21-26.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**